

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 9 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Mamatjonov Rahimjon Akramovich*

“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI ..... 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*

МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ..... 17-22

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Турсунов Бекмухаммад Омонович*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ..... 23-34

*Курпаяниди Константин Иванович*

ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ..... 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*

O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ..... 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 52-62

*Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ..... 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*

TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 74-80

*Davronov Istamxo‘ja Olimovich*

МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ВАНОЛАШ USULLARI ..... 81-86

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*

ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ..... 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ ..... 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*

МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i> KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	117-127
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ .....	128-136
<i>Эшонкулов Акмал Кудратович</i> ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	143-150
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i> YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI .....	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR .....	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI .....	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i> UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI .....	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i> СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i> ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI .....	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i> JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI .....	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i> XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	198-202
<i>Azimov Sherzod</i> PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY .....	203-207
<i>Абдурахмонович Хасан Иброхимович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	208-216

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..... 217-223

*Teshabaeva Dilfuza Muminovna, Abduxalilova Gulbaxor Karabaevna*

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ ..... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..... 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..... 247-253

*Hodir Raхmatullaev*

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..... 254-260

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 271-276

**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..... 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) ..... 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..... 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI .....	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI .....	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH .....	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK JIHATLARI .....	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH .....	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI .....	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH .....	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS .....	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLIIY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI .....	363-367
<i>Xusaanova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ .....	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ TAVSIFDAGI MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI .....	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI .....	380-384



*Eshnazarov Murod Karimovich*

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI .....385-391

*13.00.00- Психология фанлари*

**Jumaniyazova Go'zal**  
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

### **OLIV O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarning tabiiy-ilmiy, matematik va o'qish savodxonligini aniqlashda Xalqaro baholash dasturlari ahamiyati, ularning maqsad va vazifalari haqida yoritib berilgan. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS xalqaro dasturini o'rgatishda yangi avlod darsliklari asosida xalqaro talablarga javob beradigan darajada ta'lim sifatini yaxshilash va talabalarning ilmiy salohiyatini, ijodiy izlanishini ta'minlash xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, Xalqaro baholash tadqiqotlari, Ona tili va o'qish savodxonligi, PIRLS dasturi, metodika.

**Jumaniyazova Guzal**  
Base doctoral student of Urgench State University

### **METHODOLOGY FOR TEACHING GRADUATE STUDENTS TO PREPARE PIRLS-ORIENTED ASSIGNMENTS**

**Abstract.** This article covers the importance of international assessment programs in determining the natural-scientific, mathematical and reading literacy of students, their goals and objectives. In teaching the international PIRLS program of teachers of the future primary class, it was thought about improving the quality of education and ensuring the scientific potential, creative search of students to meet international requirements on the basis of a new generation of textbooks.

**Keywords:** Primary Education, International Assessment studies, native language and reading literacy, PIRLS program, methodology.

**Джуманиязова Гузал**  
Базовый докторант  
Ургенчского государственного университета

### **МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПЕРЕВОДЧЕСКОГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ ПОДГОТОВКЕ ЗАДАНИЙ, ОРИЕНТИРОВАННЫХ НА PIRLS**

**Аннотация.** В этой статье рассказывается о важности международных оценочных программ, их целях и задачах в определении естественнонаучной, математической и читательской грамотности учащихся. Обучение будущих учителей начальных классов по международной программе PIRLS на основе учебников нового поколения направлено на повышение качества образования до уровня, отвечающего международным требованиям, и обеспечение научного потенциала, творческого поиска отечественных учащихся.

**Ключевое слово:** начальное образование, международные оценочные исследования, родной язык и грамотность чтения, программа PIRLS, методология.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N49>

Yurtimizda ta'limning eng quyi bosqichidan boshlab izchil islohotlar, yangilanishlar olib borilayotgani, ta'lim subyektlari bo'lgan iqtidorli bolalar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratishga e'tibor ortib bormoqda. Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev 2019-yilning 8-oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. [1]

Ushbu farmonning amaliy ijrosiga muvofiq ta'lim jarayoniga Xalqaro tadqiqotlar kirib keldi. Bundan maqsad O'zbekistonda tahsil olayotgan o'quvchilarning ilmiy salohiyati va bilim darajasi dunyo reytinglarida baholanishi orqali O'zbekiston o'z nufuzini xalqaro maydonda ko'rsatishga imkon beradi.

Ayni paytda ta'lim oluvchilarning tabiiy-ilmiy, matematik va o'qish savodxonligini sinovdan o'tkazish va ularning yuqori natijalarga erishishini kafolatlashda PISA, TIMSS, (o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini aniqlovchi) PIRLS (matnni o'qish va tushunish ko'nikmasini aniqlash) EGMA va EGRA (boshlang'ich matematika va o'qish savodxonligini aniqlash) dasturlarining ommalashgani va uning ahamiyati kattadir. [2]

Respublikamizda olib borilayotgan mazkur xalqaro tadqiqotlarga oid manbalarning tahlili va xorijiy olimlarning, mutaxassislarining ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlarini o'rganish natijasiga ko'ra ularning ilg'or tajribalarini va usullarini yurtimizning barcha ta'lim bosqichlariga tatbiq etish zarur ekanligini ko'rsatdi.

Xususan, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning matnni o'qib tushunish savodxonligini aniqlash PIRLS xalqaro dasturining nazariy va amaliy mohiyatini dastlab bo'lg'usi pedagoglarga o'rgatish kerakligini namoyon etadi.

PIRLS – Progress in International Reading Literacy Study) – bu turli mamlakatlarda 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini xalqaro baholash tizimidir. PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars mobaynida va maktabdan tashqari vaqtlarida o'qishini ikki turi baholanadi:

- o'quvchilarning adabiy tajribasini baholash maqsadida;
- ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish
- Ushbu dasturda O'zbekiston birinchi marta 2021-yilda ishtirok etdi. [3]
- Yuqorida qayd etilgan xalqaro dasturlarning ta'lim jarayoniga kirib kelgani 20

yildan oshdi. Biroq O'zbekiston Respublikasi bu xalqaro tadqiqotlarga jalb etilganiga hali ko'p fursat bo'lgani yo'q. Xalqaro dasturlar nomi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar orasiga 2019-yillarda kirib keldi.

- Ana shu sabablarga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktabining dastlabki bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim jarayonidan o'quvchilarning Xalqaro dasturlarga bo'lgan imkoniyatni kuchaytirishda, avvalo o'qituvchilarning bilim salohiyati yuqori bo'lishini talab etadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtida pedagogik yo'nalishda, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Xalqaro baholash dasturlarga tayyorlash kerakligini davr zaruriyati deb baholashimiz mumkin.

Oliy ta'lim bosqichida Ona tili o'qitish metodikasi fanining amaliy, seminar va ma'ruza mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf darsliklarini chuqur tahlil etish, darslikda keltirilgan mavzular va materiallarning Xalqaro dasturlarga qay darajada uyg'un ekanligini o'rganish talab etadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan mavzularni PIRLS ga yo'naltirilgan

topshiriqlar asosida uyg'unlashtirish, matnlar ustida ishlash, tahlil etishga o'rgatish bo'lg'usi o'qituvchilarning o'quvchilar bilan ishlashida murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirishni oldini oladi. Xalqaro dasturga oid o'quvchilar uchun maxsus kitobchalar bor, albatta. Biroq darslikda keltirilgan matn materiallarini xalqaro standart darajasida o'quvchilarga o'rgatish – kelgusida Respublikamizda tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim darajasi xalqaro miqyosda yuqori reytinglarni qayd etish imkoniyatini beradi.

Shunga ko'ra, Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf 2-qismda berilgan "Ibn Battuta sayohatlari" mavzusidagi matnni PIRLSga yo'naltirilgan topshiriqlar asosida ishlab chiqish – bo'lg'usi o'qituvchilarning dars mobaynida va maktabdan tashqarida ham Xalqaro dasturlarga o'quvchilarni oson tayyorlashga o'rgatish maqsad qilindi. [4]

Matn o'qituvchi boshchiligida o'quvchilar tomonidan o'qiladi. Matn PIRLS nuqtai nazardan olib qaralganda, axborot matni hisoblanadi. Matnda keltirilgan ma'lumotlar o'quvchi tomonidan topshiriqlarni ishlash asosida analiz-sintez qilinadi.

### **I. Bo'sh chiziqlar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.**

O'tmishdagi eng taniqli jahongashta \_\_\_\_\_ hisoblanadi.

Hayotining \_\_\_\_\_ yilini sayohatda o'tkazgan.

Hindistonda biroz yashagach \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ ga safar qilgan. \_\_\_\_\_ noyob ma'lumotlarga boy kitob sanaladi.

\_\_\_\_\_ yashil tusda, go'shti \_\_\_\_\_, juda shirin.

### **II. Quyidagi berilgan savollarga javob bering.**

1. Ibn Battuta qaysi millatga mansub edi?

- A. hind
- B. arab
- C. tojik
- D. ajnabiy

2. Ibn Battuta yaratgan asar nomini toping.

- A. Sayyohnoma
- B. Sarguzashtnoma
- C. Sayohatnoma
- D. Salovatnoma

3. Ibn Battuta qaysi shahardan Termizga yetib keladi?

- A. Buxoro
- B. Xorazm
- C. Samarqand
- D. Movarounnahr

4. Qovunqoqilar qaysi davlatda sotilgan?

- A. Xorazm
- B. Hindiston
- C. Arabiston
- D. Afg'oniston

**III. Matn qismlariga mos sarlavhani aniqlang. Bir harfni qayta qo'yishingiz mumkin. Namuna: A – Dunyoga tanilgan sayyoh**

**A, B, D, E, F, G, H**

- Vatanimiz tarixini o'rganishda manba

- Jahonga tanilgan sayyoh
- Mohir ustalar shahri
- Dunyoga tanilgan qovunlar yurti
- Eng mashhur o'lkaga sayohat
- Ibn Battuta safar qilgan mamlakatlar
- Anhorlarga boy shahar
- Mehmondo'st va oliyjanoblar yurti
- Mevalari mazali shahar

#### IV. Mos ma'lumotlarni joylashtiring.

Xorazm	→ Daryo qirg'og'ida joylashgan
Samarqand	Hindistonda sotilgan meva
Buxoro	Xalqi olijanob va mehmondo'st
Ibn Battuta	Behi va uzumi shirin o'lka
Qovun	Musulmon o'lkalarning taniqli shahri
Sayohatnoma	Dunyo kezishni sevgan odam
Termiz	Noyob ma'lumotlar bor kitob

#### V. O'lka so'zini yana qanday ifodalasak bo'ladi? Chiroyli so'zini-chi?

Masalan: yurt, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_


VI. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nosini lug'atdan toping. Ushbu so'zlarning ma'nosiga mos gaplarni aniqlab, yozing. Izohlangan so'zlarning tagiga namunadagidek chizing.

Barchaga <b>taniqli</b> bo'lgan rassom sur'atlarini ko'rdik	Sayyoh
<b>O'tmish</b> dagi bobolarimiz ishlari bizga ibratdir	Sohibi
Xo'l bo'lgan kiyimni <b>quyosh</b> da quritdik	mashxur
<b>Jahongashta</b> ko'p yurti ko'rgan	Yirik
Yuksak iqtidor <b>egasi</b> maqtovga loyiq	tarix
Xorazm qadimda <b>katta</b> davlat bo'lgan	oftob

VII. Alifbo ketma-ketligida A dan H gacha davlatlar nomini misol keltira olasizmi? Masalan: Amerika, Boqu

- A \_\_\_\_\_  
 B \_\_\_\_\_  
 D \_\_\_\_\_  
 E \_\_\_\_\_  
 F \_\_\_\_\_  
 G \_\_\_\_\_  
 H \_\_\_\_\_

VIII. Ibn Battuta qaysi mamlakatlar orqali nechta o'lkada bo'lganini to'ldiring.



**IX. So'zlarga e'tibor bering. Ular o'rtasida bog'liqlik bormi? Nega ular har xil atalganini gaplar tuzib aniqlab bering.**

Tarix -

Tarixchi -

Tarixsiz -

Tarixiy -

**Namuna: Muzeida tarixiy buyumlar saqlanadi.**

**X. Qanday transport vositalari orqali sayohat qilish mumkin? Misol keltirgan har bir transportning afzallik tomonlarini yozib bering.**

**Namuna: Samolyotda sayohat qilsak, vaqtni tejagan holda manzirimizga tez yetib boramiz va sayohat qilishga ko'proq vaqt qoladi.**

---

**XI. Matnga yana qanday sarlavha qo'ysa bo'ladi?**

A. Ibn Battutaning tarixi

B. Sayohatchining fikr va o'ylari

C. Sayyohsevar – Ibn Battuta

D. Ibn Battuta yozib qoldirgan kitobi

**XII. Matnda keltirilgan sonlarni aniqlang va ishtirok etgan sonlar orqali masala tuzing.**

**Namuna: 1)** Polizdan 28 kilogramm qovun, 18 kilogramm tarvuz keltirildi. 14 kilogramm qovundan murabbo, 10 kilogramm tarvuzdan sharbat tayyorlash uchun olib ketildi. Necha kilogramm qovun va tarvuz qolgan?

2) 1 asr 100 yilga teng. 14 asr necha yilga teng?

XIII. Matnda oxiri \*n harfi bilan tugagan davlatlarni yozib bering.

**Namuna: Arabiston**

**XIII. Village, city, capital, country so'zlari qanday tarjima qilinadi va ma'nolari bir-biridan farqi bormi? Namuna: Village – qishloq**

Yuqorida keltirilgan topshiriqlar shakli PIRLSga yo'naltirilgan. Biroq Xalqaro dastur uchun ishlab chiqilgan maxsus topshiriq emas. Bu kabi topshiriqlar oliy ta'lim talabalari tomonidan ishlab chiqishga o'rgatish orqali ularning kelgusida Xalqaro ekspert bo'lib yetishishi va ularning pedagogik malakasi oshishi nazarda tutilgan.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmon. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. M.Toshibekova. Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori PhD darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Namangan – 2022. 29-bet.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/PIRLS>
4. I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf 2-qism. Toshkent – 2022.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).